

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»**

**Buxoro davlat universiteti**

**O.X. Xamidov**

**2026 yil**

**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA  
60230101 - FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: O'ZBEK TILI  
TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH SINOVLARI DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**Buxoro – 2026**

Dastur Buxoro davlat universitetining 2026-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

**Kilichev B.E.** – o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası mudiri, f.f.d, professor

**Rajabov D.Z.** – o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor

**Taqrizchilar:**

**Hojiyeva M.Y** – o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

**Sodiqova D.T** – o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

## KIRISH

Dasturning **maqsadi** – ikkinchi oliy ta’limga o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan suhbat va uning mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning **vazifasi** – ikkinchi oliy ta’limga o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiypedagogik faoliyat olib borish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur suhbat sinovlari dasturi talabgorlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi:

- ilmiy-tadqiqotchilik bo‘yicha kompetentlik;
- pedagogik kompetentlik;
- ma’naviy-axloqiy qadriyatlar;
- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning huquqiymе’yoriy asoslari.

### 1. UMUMIY TALABLAR

#### **Ilmiy-tadqiqotchilik va pedagogik kompetentlik:**

- mutaxassislik va professional kompetentlik, uslubiy kompetentlik, axborot kompetentligi, intellektual-pedagogik kompetentlik; ilmiy va ilmiy- texnik sohalarda dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish mexanizmlari, ularni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; zamonaviy axborot-telekommunikatsiya va ilmiy-hajmdor texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularni ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat va o‘quv jarayoniga tatbiq qilish;
- o‘z bilimlarini ko‘rsata bilish va boshqalarga bera olish qobiliyati;
- Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi bo‘yicha jahonda miqyosida taraqqiyot tendensiyalari, tadqiqotning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik va zamonaviy bilim darajasi, o‘z tadqiqotlarining muayyan fan sohasidagi roli va o‘rni;
- Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlarga egaligi, zamonaviy tadqiqot metodlarini bilishi;
- ilmiy muammoni qo‘ya olishi va hal etishi, tadqiqot maqsadlarini shakllantirishi va kutilayotgan natijalarni ilmiy asoslashi;
- ilmiy munozara olib borish qobiliyati, dunyoqarashining kengligi, mantiqiy fikrlash, bilimining serqirraligi.

#### **Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar:**

- milliy mustaqillik mafkurasi asoslari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy ma’naviy, moddiy merosi, ahloqiy kamolot, ahloqiy tamoyillar, vatanparvarlik va fuqarolik ongi, umumiy madaniyat, ijtimoiy faollik, olim psixologiyasi va etikasi va boshqalar.

#### **Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning huquqiymе’yoriy asoslari:**

- O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi siyosatining asoslari, ularni amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va yo'llari, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantiruvchi iqtisodiy va boshqa choralari tizimi, fan va texnologiya taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari;
- innovatsiyalarga bo'lgan talablarni oshirishning, fundamental fanning ildamlovchi taraqqiyotini ta'minlashning, eng muhim amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari;
- fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita rag'batlantirish choralari, bozor mexanizmlarini davlat tomonidan tartibga solinishi bilan oqilona uyg'unlashtirish, oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatni takomillashtirish; - oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi.

## **2. ILMIY-TADQIQOTCHI SIFATIDA KOMPETENTLIK**

### **Umumiy tayyorgarlik**

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasining ilmiy asoslarini, ilmiy va ilmiy-texnika sohasidagi metodologik asoslarini chuqur bilish, ilmiy va davriy nashrlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Fan sohasining Respublika va dunyo miqyosida rivojlanish tendensiyalarini, taraqqiyoti yo'nalishlarini bilish. Global fikrlash, mulohaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

### **Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik**

Fanning ilmiy asoslari mazmuni. Adabiyotlar. Ilmiy adabiyot turlari (monografiya, maqola, tezis, risola, referat va boshqalar) hamda ularning tuzilmalari (strukturasi).

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasining soha bo'yicha ilmiy asoslar (nazariy va amaliy). Nazariy izlanishlar olib borish usullari. Modellash. Parametrlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlaridan foydalanish.

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasining O'zbekiston Respublikasida va dunyoda rivojlanish tendensiyalari. Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasining soha oldidagi ilmiy va texnik muammolari hamda vazifalarini anglash.

### **Ilmiy faoliyatning tashkiliy jihatlari**

Magistr akademik darajasi uchun talabgorlarga qo'yiladigan talablar. Magistraturaga kirish tartibi.

### **Fan sohasi bo'yicha ilmiy asoslarni bilish. Ilmiy muammolar**

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlar.

Soha o'quv fanlarining ilmiy asoslari tarkibi.

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili sohasini rivojlanishi bilan bog'liq omillar.

Tanlagan mutaxassislik bo'yicha qo'yilgan ilmiy masala mohiyati, ilmiy maqsad va olinadigan natijalar mohiyati

### **3. PEDAGOGIK KOMPETENTLIK Pedagogik-psixologik tayyorgarlik**

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllari, o'qitish metodlari va vositalari. Talaba shaxsini o'rganishning psixodiagnostik metodlari.

Ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta'minlash. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish.

#### **Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati**

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablar.

Mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish metodikasi.

O'qitishning zamonaviy usullaridan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, multimediya ta'lim resurslaridan foydalanish.

#### **Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish**

Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib topshirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati.

Masofaviy va virtual ta'lim olish.

#### **O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish**

Fanlar turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarning mazmun-mohiyati, rivojlanish tarixi.

### **4. MA'NAVY-AXLOQIY QADRIYATLAR**

Istiqlol, islohotlar, ma'naviyat tushunchalari.

Milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi.

Milliy mustaqillik mafkurasi asoslari.

Ilmiy etika (ilmiy halollik) tamoyillari. Ilmiy baxs tushunchasi.

Yuksak ma'naviyatli shaxs. Ma'naviy barkamollik. Ma'naviy barkamol inson.

Mafkuraviy immunitet. Diniy aqidaparastlik. Ma'naviy tahdid. G'oyaviy tahdid.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy- ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish.

#### **Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari**

O'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllari.

"Ma'naviyat" kunlarini o'tkazish, dolzarb mavzular bo'yicha talabalar bilan suhbatlar o'tkazish, shu jumladan «ZiyoNet» axborot-resurs portali materiallaridan foydalanish.

## **“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANI**

### **Kirish**

Hozirgi o'zbek tilining dialektal tarkibi. Hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek tili tushunchasi. Uning lisoniy imkoniyat ekanligi va voqelanish shakllari: adabiy va noadabiy, og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'rinishlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. O'zbek tili rasmiy uslubi asosida davlat tili sifatida. *Davlat tili* tushunchasi va uning yondosh hodisalar (milliy til, xalq tili, xalqaro til, rasmiy til kabi) dan farqi.

Hozirgi o'zbek tilini ilmiy o'rganish bosqichlari. XX asrgacha bo'lgan o'zbek til ilmi. O'zbek an'anaviy tilshunosligi. Hozirgi o'zbek tilining yangi lingvistik paradigmalarda ilmiy talqin qilinishi.

Hozirgi o'zbek tili sathlari: fonetik sath, leksik sath, grammatik sath. "Hozirgi o'zbek tili" fanining bo'limlari. Til sathlari va tilshunoslik bo'limlari munosabati.

### **Hozirgi o'zbek tilining fonetik sathi va fonologiyasi**

O'zbek tilida fonetika tushunchasi. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha asosi ekanligi. O'zbek tili fonetikasi va uning asosiy birligi. O'zbek tilida tovushlar tizimi, unda nutqiy munosabatning aks etishi. Tovush turlari. Unli tovushlar va ularning xususiyatlari, unli tovushlarning tasniflash asoslari. Undosh tovushlar va ularning xususiyatlari, undosh tovushlarni tasniflash asoslari.

O'zbek tili orfoepik me'yorlar va ularning ko'rinishlari, fonetik hodisalar va ularning turlari, urg'u, bo'g'in, ohang va b. Tovushning voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxs va b.), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

### **Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiya**

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksemaning tuzilishi, tub/yasalganligi, ma'no ko'lami, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgilariga ko'ra turlari, munosabatlari. Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzual va okkazonal ma'no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taraqqiyoti. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar. So'z o'zlashtirish. O'zlashma va olinma so'zlar. So'z olish yo'llari.

O'zbek tili leksemalarining ishlatilish doirasi. Ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksikaning turlari.

O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati. Ekspressivlikning ifodalanish usullari.

O'zbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi.

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazelogik ma'no, uning turlari.

Frazeologik-semantik munosabatlar. Frazemalarning nutqiy voqelanishi. Frazemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi.

Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Umumiy va maxsus, filologik va qomusiy, alifboli va sistemali, akademik va ta'limiy, bosma va elektron, yopiq (doimiy yangilanmaydigan) va ochiq (doimiy yangilanib turadigan) lug'atlar.

O'zbek o'quv leksikografiyasi muammolari va o'quv lug'atlari. Til korpusi.

### **O'zbek tili morfemikasi, derivatsiyasi va morfofonologiyasi**

Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: so'z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar. So'z yasovchii morfemaning turlari. Shakl yasovchi morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. So'z turkumlarida yasallash va yasama so'zlarning leksemalashishi. So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik. Morfofonologiya. Lisoniy morfonologik alternatsiyalar. Morfonema – morfonologiyaning til birligi sifatida.

### **Morfologiya**

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan so'z uning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari.

O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, g'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Fe'l. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'lning lug'aviy-grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan ko'rinishlari; tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.

Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bo'lishlibo'lishsizlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdash, ravishdash, harakat nomi. O'zgalovchi kategoriya va shakllari umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari.

Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.

Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Taqlid va uning o'rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kesimlik murakkab tarkibli kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.

Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lama.

Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Ko'makchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Bog'lovchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.

So'z-gaplar, ularning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. So'zgaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

### **Sintaksis**

Sintaksis va uning o'rganish predmeti. Sintaktik birliklar: so'z birikmasi va gap. O'zbek tilida so'z birikmasi va uning turlari, gap turlari, ularning qurilish xususiyatlari.

Erkin birikmalar va uning turlari. So'z birikmasi, uning xususiyatlari, tarkibi, tiplari va turlari, yondosh hodisalarga munosabati. So'z birikmasi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. So'z birikmasi turlari, erkin birikuv omillari: so'z birikmasini yuzaga keltiruvchi vositalar,. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Gap va uning qurilish turlari. Sodda gap, uning nutqiy xususiyatlari. Sodda lisoniy belgilar asosidagi turlari: yig'iq va yoyiq gap, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap.

Gap bo'laklari. Gap bo'laklarida darajalanish (kesim – ega – hol – to'ldiruvchi – aniqlovchi). Gap markazi. Gap va so'z kengaytiruvchilari.

Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim. Fe'l kesim va ism kesim. Fe'l kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish imkoniyatlari kengligi. Fe'l kesimning tuzilish turlari va ko'rinishlari. Ism kesim, uning grammatik shakli, ifodalanishi. Bog'lama, uning ko'rinishlari. Ism kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari. Fe'l kesimning tuzilish turlari va ko'rinishlari.

Ega, uning gap qurilishidagi o'rni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.

Hol, uning gap qurilishidagi o'rni, ma'noviy turlari, ifodalanishi.

To'ldiruvchi, uning gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'rni, ifodalanishi. To'ldiruvchilarning turlari.

Aniqlovchi, uning gap qurilishidagi o'rni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.

Sodda gapning murakkablashuvi: gapning ajratilgan bo'laklari, uyushiq bo'laklar, undalma, kirish va kiritma kengaytiruvchilar.

Sodda gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Qo'shma gap. Qo'shma gap tasnifi asoslari. Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra tasnifi: Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifi: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog'lovchilar vositasida, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida, nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap.

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari: qismlari payt, o'rin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va b. ma'noviy munosabatlar asosida bog'langan qo'shma gaplar. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari: kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, to'ldiruvchi tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap. Qo'shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko'ra tasnifi.

## «TILSHUNOSLIK NAZARIYASI» FANI

### Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

*Tilshunoslikka kirish.* Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati. Tilning ijtimoiy vazifalari. Til va jamiyat. Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari.

Til va tafakkur. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati.

Til-tafakkur-nutq munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi. Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asosiy turlari. Lisoniy tasnif asoslari.

Tilning semiotik tabiati. Til sathlari. Tilshunoslik fani bo'limlari.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi. Sinxronik va diaxronik o'zgarishlar.

Tillarning shakllanishi va rivojlanishi. Dunyo tillari tavsifi va tasnifi. Tillarning genetik, tipologik va areal tasniflari. Til oilalari. Til guruhlar.

*Tilshunoslik va boshqa fanlar.* Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar. Tilshunoslik va falsafa. Tilshunoslik va mantiq. Tilshunoslik va sotsiologiya. Tilshunoslik va psixologiya. Tilshunoslik va psixoterapiya, psixiatriya, defektologiya.

Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslik va arxeologiya. Etnografiya. Til va madaniyat.

Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Tilshunoslikning fizika va kimyo fanlari bilan aloqadorligi. Tilshunoslikda maydon nazariyasi. Tilshunoslikda valentlik nazariyasi.

Tilshunoslik va biologiya. Tilshunoslik va antropologiya. Tilshunoslik va fiziologiya. Nutqiy buzilishlar: afaziologiya va logopediya.

Tilshunoslik va geografiya. Lingvogeografiya va areal tilshunoslik.

Tilshunoslik va matematika. Kibernetika.

### **Adabiyot nazariyasi**

She'riy vaznlar. Aruz vazni. Barmoq vazni. Erkin vazn.

G'azal janri. Qit'a janrining tarixi, kelib chiqishi va tarkibiy tuzilishi. O'zbek adabiyotidagi ilk g'azallar va g'azalnavislik. G'azallarning mavzusiga ko'ra turlari. G'azallarning boshqa adabiy janrlar bilan farqli va o'xshash tomonlari.

Ruboiy janri. Ruboiynavislik. Ruboiylarning tuzilishi va turlari. Mashhur Ruboiynavislar. Umar Xayyom, Navoiy va Bobur ruboiylari.

Qit'a jarni. Qit'a janrining tarixi, kelib chiqishi va tarkibiy tuzilishi. O'zbek adabiyotida qit'a yozgan ijodkorlar. Qit'aning boshqa adabiy janrlar bilan farqli va o'xshash tomonlari.

Fard jarni. Fardllarning tuzilishi hamda uning boshqa kichik sh'eriylar bilan farqli va o'xshash tomonlari.

Chistonlar. Chistonlarning topishmoq va muammolardan farqli va o'xshash tomonlari. Uvaysiy chistonlari.

Tuyuq janri. Tajnis va tuyuq. Tuyuq janrining talablari.

Qofiya va radif. Qofiya hamda uning turlari. Radif hamda uning turlari.

She'riy san'atlar. Irsoli masal. Lutfiy g'azallarida irsoli masal san'ati.

### **Folklor**

Maqol. Maqol tushunchasi. Maqolning turlari. Maqolning o'ziga xos xususiyatlari.

Topishmoq. Topishmoq tushunchasi. Topishmoq turlari. Topishmoqning ma'no va mazmun jihatdan rang-barangligi.

Masal. Masal tushunchasi. Masalning o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati. Mashhur masalshunoslar va masallaridan namunalar.

Ertak tushunchasi. Ertakning mavzu jihatdan turlari. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi haqida. Ertaklarning boshqa adabiy janrlardan farqli va o'xshash tomonlari.

### **Mumtoz o'zbek adabiyoti**

Sa'diy Sheroziyning hayoti va ijodi. "Guliston" va "Bo'ston" asarlarining badiiyati, ularning tarjimalari. Sa'diy asarlarida didaktika. "Guliston" asarining o'zbek adabiyotiga ta'siri.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi hamda uning o'rganilishi. "Qutatg'u bilig" didaktik doston. Dostondagi obrazlar tavsifi va ramziy ma'nolar.

Lutfiy hayoti va ijodi. Lutfiyning adabiy merosi. Lutfiy g'azallari. Tazkiralardagi Lutfiy haqidagi ma'lumotlar.

Alishr Navoiy hayoti va ijodi, hamda uning o'rganilishi. Navoiyshunos olimlar. A. Navoiyning she'riy va nasriy asarlari. A. Navoiyning ilmiy-nazariy, tarixiy, tasavvufiy, falsafiy asarlari.

Alisher Navoiy devonlari, ulaming tartib berilishi tarixi, janriy tarkibi va mavzulari. Navoiyning forsiy devoni.

Alisher Navoiy g'azaliyotining shakli, g'oyaviy xususiyatlari, yetakchi qahramonlari va badiiyati. Navoiyning forsiy she'rlari.

Navoiy ijodiy merosida kichik she'riy janrlar. Qit'a, mboiy, tuyuq va lug'z (chiston)lar. Navoiyning forsiy she'rlari.

Xamsachilik an'anasi. "Xamsa" dostonlarining tarkibi va tuzilishi. Ilk "Xamsa". Navoiygacha bo'lgan xamsanavislar va ularning "Xamsa"laridagi farqli va o'xshashliklar. Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi tarixi.

Navoiy "Xamsa"si. "Hayrat ul-abror" - muqaddimaviy doston. Asaming tuzilishi, maqolat va hikoyatlar.

Navoiyning "Farhod va Shirin" ishqiy sarguzasht dostoni. Asaming tuzilishi, mavzu va g'oyalar olami, yetakchi qahramonlari.

«Sab'ai sayyor» - Navoiy nazmining yetti sohir tuhfasi. "Sab'ai sayyor" dostonida tarkibidgi yetti hikoyat va qoliplovchi shoh Bahrom bilan bog'liq voqealarning o'zaro uyg'unligi. "Mehr va Suhayl" hikoyasi tahlili va xulosasi.

Navoiyning "Mahhuh ul-qulub" ("Ko'ngillaroing sevgani") pandnomasi. "Mahhuh ul-qulub" asarining tarkibiy tuzulishi. Asar tarkibidagi nazmiy parchalar va ularning asarda bajargan vazifasi.

Jahon otin Uvaysiy she'riyati. Uvaysiyning XVIII – XIX asr Qo'qon adabiy muhitidagi o'rni. Uvaysiy chistonlari.

XVIII – XIX asr Qo'qon adabiy muhiti. Nodira va uning ijodiyoti. Nodiraning adabiy merosi. Turkiy va forsiy she'riyati.

Muhammad Fuzuliy hayoti va ijodi. Fuzuliy she'riyatida Navoiy ta'siri. Fuzuliy g'azallari. Fuzuliyning "ILayli va Majnun" dostoni.

### **Jahon adabiyoti**

Aka-uka Grimm ertaklari. Ularning ertaklaridagi o'ziga xosliklar. "Botir tikuvchi" ertagi haqida va uning xulosasi.

Nodar Dumbadzening hayoti va ijodi. N. Dumbadze asarlarining o'ziga xos tomonlari. N. Dumbadzening roman, qissa va hikoyalari hamda ularning o'zbek tilidagi tarjimalari. N. Dumbadze asarlari asosida suratga olingan vidiofilmlar. "Hellados" hikoyasi, undagi qahramonlarning xarakter-xususiyatlari. "Hellados" hikoyasining xulosa va badiiy g'oyasi.

Abayning hayoti va ijodi. Uning qozoq adabiyotidagi o'rni. Abay o'lanlari va ularning badiiy xususiyatlari. O'lan janri haqida. Abay o'lanlarining tarjimalari.

Lengston Hyuzning hayoti va ijodi. "Rahmat sizga xonim" hikoyasi va unda ilgari surilgan g'oyalar. "Rahmat sizga xonim" hikoyasidagi qahramonlarning xarakterini tasvirlovchi ifodalar.

Rey Bredberi asarlari. "Bir kunlik yoz" hikoyasining asosiy g'oyasi. Rey Bredberi asarlarining tarjimasi.

Ernest Senton-Tompsonning hayoti va ijodi. Tompson asarlari va ulardagi tabiat tasviri. "Lobo" hikoyasi. Hikoyadagi pesajning ahamiyati. Muallifning hikoya qahramoniga munosabati.

Ernest Heminguey shaxsiyati va uning asarlaridagi g'oyalar. Ernest Heminguey asarlaridagi muallif uslubining ifodasi. "Chol va dengiz" asarining badiiy g'oyasi. Asardagi ramzlar va ularning tahlili.

Sergey Yesinin she'riyati. Yesinin she'rlaridagi Sharq adabiyoti ta'siri namunalari. "Fors taronalari" turkum she'rlari. S. Yesinin "Xat" she'rlari. Sergey Yesinin she'rlari tarjimalari.

Rasul Hamzatov she'riyati. Muallif sh'erlarida ona yurt, millat va tabiat tasviri. Rasul Hamzatov she'rlariga xos alohida xususiyatlar.

Robingranath Thokur hayoti va ijodi. Thokur asarlarining mavzusi va g'oyasi. R. Thokur milliy ozodlik kurashchisi. "Nur va soyalar" asaridagi qahramonlar xarakteri.

Anton Chexovning hayoti va ijodi. Rus va jahon adabiyotida Chexovning o'rni. Chexovning yumoristik va satirik asarlari. "Hameleon" hikoyasi. Hikoyadagi obrazlar hatti-harakatlari.

### **Yangi o'zbek adabiyoti**

Mirkarim Osim hayoti va ijodi. Mirkarim Osimning tarixiy mavzudagi mashhur asarlari. Mirkarim Osim asarlarining o'ziga xos jihatlari. "Zulmat ichra nur" asari. Mirkarim Osimning tarjimalari.

Oybek hayoti. Oybek ijodi. Oybek dostonlari. Oybek romanlari. Oybek hikoyalari. Oybek asarlarining mavzu jihatdan turlari. "Fanorchi ota" hikoyasi. Asar qahramonlarining xarakter xususiyati. "Bolaning ko'ngli poshsho" hikoyasi. Oybek asarlarida tasvirlangan bolalik manzaralarining bugungi kundagi o'xshash va farqli jihatlari.

Mirtemir hayoti va ijodi. Mirtemir she'riyati. Mirtemirning mashhur she'rlari. Mirtemir she'rlarida badiiylik va ohangdoshlik. Mirtemir she'rlarida bolalik xotiralarining o'rni.

O‘tkir Hoshimov ijodi. O‘tkir Hoshimov dramalari. O‘tkir Hoshimov asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari. “Dunyoning ishlari” qissasi. Asardagi ona obrazining fazilati. Asar g‘oyasi va xulosa.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodi. Abdulla Avloniy she‘riyatida asosiy g‘oya. “Vatanni suymak” asari va badiiyati. “Vatan” she‘rining o‘ziga xos jihati.

Erkin Vohidov ijodi. Erkin Vohidov dramalari. Erkin Vohidov asarlaridagi yetakchi g‘oya. “Nido” dostoni. Dostondagi asosiy muddao. Shoir she‘rlaridagi yetakchi jihatlar.

Abdulla Oripov hayot yo‘li. Abdulla Oripovning asarlari. Abdulla Oripov she‘riyati. “O‘zbekiston” qasidasi. Qasidaning boshqa janrdagi asarlardan farqli va o‘xshash jihatlari. Qasidaning o‘ziga xos badiiyati.

Abdulla Qahhor hayoti va ijod yo‘li. Abdulla Qahhorning mashhur asarlari. “O‘g‘ri” hikoyasi. Hikoyaning asosiy g‘oyalari. Hikoyada muallif tiliga xos xususiyatlar. Hikoyada davrga xos jihatlar.

G‘afur G‘ulom-iste‘dodli ijodkor. G‘afur G‘ulom ijod yo‘li. G‘afur G‘ulomning mashhur asari. “Shum bola” qissasi haqida. “Shum bola” asari yumoristik asar. Asar va uning kino talqini. Asardagi voqealar bayoni. Asardagi davr muammolari.

Odil Yoqubov hayoti va ijodi. Odil Yoqubov asarlarining o‘ziga xos jihatlari. “Yaxshilik” hikoyasi. Asarda obrazlar o‘rtasidagi badiiy munosabatlar. Hikoyadagi asosiy g‘oya va mavzu.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

### **Rahbariy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat–engilmas kuch.–Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A., Sheremetova A. Общeye языкознаниye. – Toshkent, 2004.
2. Baskakov N. A., Sodiqov A. S., Abduazizov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1979.
3. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
6. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
7. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.– Toshkent. 2010.
8. Ahmedov S., Qosimov B. 5-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent: “Sharq” 2015.
9. Mirzayeva Z., Jalilov K. 6-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent. 2022.
10. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent. 2022.
11. Olim S., Ahmedov S. 8-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2014.
12. Yo ‘ldoshev Q., Qodirov V. 9-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent. Yangiyo‘l poligraf servis, 2014.
13. Mirzayeva Z., Jalilov K. 10-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent. 2022.
14. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. 10-sinflar uchun adabiyot darsligi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 2018.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

8. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Fan, 2009.
9. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.
10. Zamonaviy o‘zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
11. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
12. Nazarov K., Egamberdiyev B. O‘zbek tili ishora-imlo qoidalari. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.
13. Ne‘matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
14. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
15. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiyfanlar. -Toshkent, 2001.
16. Nurmonov A. Strukturtilshunoslik: ildizlarivayo‘nalishlari. -Andijon, 2006.
17. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasiva metodlari.-Toshkent, 2010.
18. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
19. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.
20. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari.-Toshkent,2002.
21. Rahmatullaev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. -Toshkent, 2007.

22. Punktuatsiya. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
23. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. (O'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.
24. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
25. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
26. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
27. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
28. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
29. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Navro'z. 2019.
30. Asallayev A., Rahmonov V. Badiiy san'atlar. Toshkent: Tafakkur, 2015.

## IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

| <b>Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | <b>Baholash ballari</b> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|
| <b>a)</b> berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.              | 22-25                   |
| <b>b)</b> berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy ) yondashsa, xulosalar chiqara olsa. | 19-21                   |
| <b>d)</b> berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.                                                                                                                                                                      | 14-18                   |
| <b>e)</b> berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.                                                                                                                                                                                                                                     | 0-13                    |

### Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.